

Nuh elchi



14:03 / 17.11.2019 2351

11

Alloh, Nuhni o'z qavmiga elchi qilib yuborishni xohladi. Qavmda boylar va boshliqlar bor edi, lekin Alloh o'z risolati (topshirig'ini bajarish)ga Nuhni tanladi. Ulardan birortasini tanlamadi. Alloh, O'z topshirig'ini kim ko'tara olishini biladi. Alloh omonatini kim ko'tara olishini biladi. Nuh, solih, oliyanob kishi edi. U, aqlli va ochiqko'ngil edi. Nuh, rahmdil, nasihatgo'y, rostgo'y va omonatdor edi. Alloh o'z topshirig'iga Nuhni tanlab, unga quyidagicha vahiy yubordi: «**Qavmingni, ularga alamli azob kelishidan avval ogohlantirgin**». (Nuh surasi, 1-oyat).

Nuh o'z qavmi oldida turib, odamlarga: «**Albatta men siz uchun ochiq-oydin ogohlantiruvchiman**». (Nuh surasi, 1-oyat)